



## Some referential features of lexemes related to household items in phraseology (in the material on the French and Uzbek languages)

Nigorabonu SUVONOVA<sup>1</sup>

Samarkand State Institute of Foreign Language

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received June 2023

Received in revised form

10 June 2023

Accepted 25 July 2023

Available online

15 July 2023

#### Keywords:

referent,  
referential meaning,  
phraseological unit,  
functional task,  
phraseological meaning.

### ABSTRACT

In this article, French and Uzbek phraseological units with the participation of lexemes of household items are studied in a comparative aspect. In particular, among such items as “*le couteau – pichoq*” was analyzed in accordance with the qualifying signs in various aspects reflected in the phraseological meanings of proverbs and sayings

2181-3701/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp35-41>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Frazeologiyada ro‘zg‘or buyumlari leksemasining ayrim referensiallik xususiyatlariga doir (fransuz va o‘zbek tili materialida)

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so‘zlar:

referent,  
referensial ma‘no,  
frazelogik birlik,  
funktsional vazifa,  
frazelogik ma‘no.

Mazkur maqolada uy-ro‘zg‘or buyumlari leksemasi ishtirokidagi fransuzcha va o‘zbekcha frazeologik birliklar qiyosiy aspektda o‘rganilgan. Xususan, bunday buyumlardan “*le couteau – pichoq*” referentli frazeologizmlar, maqol va matallarning frazeologik ma‘nolarida aks etgan turli xil mavzular ushbu referentning kvalifikativ belgilariga ko‘ra tahlil qilingan.

<sup>1</sup> Associate Professor, Candidate of Philological Sciences, Samarkand State Institute of Foreign Language. Samarkand, Uzbekistan. E-mail: nsuvonova@samdchti.uz

## Некоторые референциальные свойства лексем, относящихся к предметам домашнего обихода во фразеологии (на материале французского и узбекского языков)

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

референт,  
референциальное  
значение,  
фразеологическая  
единица,  
функциональная задача,  
фразеологическое  
значение.

В данной статье исследуются французские и узбекские фразеологизмы с участием лексем предметов домашнего обихода в сравнительном аспекте. В частности, из числа таких предметов как *“le couteau – pichoq”*, отраженные во фразеологических значениях пословиц и поговорочных выражений, были проанализированы в соответствии с квалификативными знаками в различных аспектах.

Fransuz frazeologiyasining leksik qatlami o'ziga yarasha xilma-xil bo'lib, ular orasida uy-ro'zg'or buyumlari leksikasi ham ko'plab frazeologik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, uy-ro'zg'or buyumlaridan ayniqsa, oshxona buyumlari, ya'ni idish-tovoqlar (*le couteau – pichoq, la fourchette – sanchqi, la cueillère – qoshiq, l'assiette – likopcha, le plat – tovoq, le chaudron – qozon* va hk.) va uy jihozlari nomlari (*le lit – to'shak, le balai – supurgi, le drap – choyshab, la chaise – o'rindiq, la table -stol* va hk.) fransuz frazeologiyasining ancha faol leksik qatlamlaridan bo'lib hisoblanadi. Bunday komponentli frazeologik birliklarni, ya'ni turg'un birikma, maqol va matallarni har qanday xalq tilida ko'plab uchratish mumkin. Masalan, fransuz tilida:

- *assiette (likopcha)* so'zi bilan *Perdre son assiette – Muvozanatni yo'qotmoq;*
- *couteau (pichoq)* so'zi bilan *Tel couteau, tel fourreau – Pichog'iga yarasha g'ilofi;*
- *fourchette (sanchqi)* so'zi bilan *Marquise da la fourchette – Xizmatkor ayol;*
- *balai (supurgi)* so'zi bilan *Hasard sur les balais – Noyob topilma; Anqoning urug'i;*

o'zbek tilida:

- *supurgi* so'zi bilan *yumshoq supurgi; qo'li kosov, sochi supurgi;*
- *pichoq* so'zi bilan *Pichoqni oldin o'zingga o'r, og'rimasa birovga.*
- *qozon* so'zi bilan *Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqar.*
- *qoshiq* so'zi bilan *Quruq qoshiq og'iz yirtar.*

• *elak* so'zi bilan *El og'ziga elak tutib bo'lmas. Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor* va hokazo.

Xuddi shunday frazeologik birliklar (*keyinchalik FBlar*) orasida ro'zg'or buyumlaridan oshxona asbobi hisoblangan *le couteau – pichoq* leksemasi frazeologiyada turli xil ma'nolarni ifodalashda ishlatiladi. Masalan, *qo'rqitish, qadr-qimmat, ikkiyuzlamachilik, zo'ravonlik, kelishmaslik, azoblash, ishonch, ahmoqlik* kabi ma'nolar shular jumlasidandir. Ushbu ma'nolarni ifodalovchi fransuzcha FBlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- *qo'rqitish: Avoir le couteau sous la gorge -tahdid qilmoq;*
- *qadr-qimmat: Tel couteau, tel fourreau -pichog'iga yarasha g'ilofi;*
- *ikkiyuzlamachilik: Couteau de tripère – ikkiyuzlamachi, riyokor odam;*
- *zo'ravonlik: Jouer du couteau- zo'ravonlik qilmoq;*

- kelishmaslik: *Être à couteaux tirés* – qirpichoq bo'lmoq; ziddiyatda bo'lmoq;
- azoblash: *Retourner le couteau dans la plaie* – ruhan azoblash;
- ishonch: *Un second couteau* – kimningdir chap qo'li (ishongan odami) bo'lmoq;
- ahmoqlik: *Être bête à couper au couteau* – o'ta ahmoq bo'lmoq;
- qalinlik, quyuqlik: *Coupé au couteau* – juda qalin; quyuq;
- uzunchoqlik: *Visage en lame de couteau* – ovalsimon bet;
- imkoniyat: *Travailler au petit couteau* – imkoni boricha harakat qilmoq;
- urush: *Guerre au couteau* – qirg'in urush;
- jangovorlik: *Aiguiser ses couteaux* – jangga hozirlik ko'rmoq;
- epchillik: *Avoir le couteau facile* – qo'li chaqqon;
- ega bo'lish: *Avoir le pain et le couteau* – barcha zaruriy narsalarga ega bo'lmoq;
- qo'rquv: *Être sous le couteau* – joni garovda bo'lmoq;
- janjal: *Jouer des couteaux* – pichoqlashmoq;
- tayyorlik: *Mettre le couteau sur table* – taom tortishga tayyor turmoq;
- ehtiyotkorlik: *Ce couteau là coupe comme le genou de grand-mère* – o'tmas pichoq

qo'l kesar.

O'zbek tilida ham ro'zg'or buyumi, aniqroq qilib aytganda, oshxonaning eng faol asbobi sanalgan *pichoq* so'zi yordamida hosil bo'lgan bir qator frzeologik ibora, maqol va matallarni sanab o'tish mumkin:

- nomuvofiqlik: *O'tmas pichoqqa* – oltin sop.
- afzallik: *Oltindan omoch bo'lmas, misdan* – pichoq.
- ehtiyotkorlik: *O'tmas pichoq qo'l kesar.*
- omadsizlik: *Kambag'alning ho'kizi o'lsa pichoq topilmas.*
- qo'shxotinlilik: *Ikki pichoq bir qinga sig'mas.*
- nodonlik va donolik: *Jahl-pichoq, aql-tayoq.*
- qadr-qimmat: *Yo'qolgan pichoqning sopi* – oltin.
- yaxshi munosabat: *Yaxshi gap bilan ilon izidan, yomon gap bilan pichoq qinidan*

chiqar.

- mehnatidan bebahra bo'lish: *Usta pichoqqa yolchimas, etikdo'z bigizga.*
- jangovorlik: *Chopqir ot* – o'tkir pichoq.
- so'z o'tkirligi: *Ota so'zi* – pichoq, *ona so'zi* – qumaloq.
- o'z yaqinlariga teginmaslik: *Pichoq qancha o'tkir bo'lsa ham o'z sopini kesmaydi.*
- yomonlik qilmaslik: *Pichoqni oldin o'zingga o'r, og'rimasa birovga.*
- tengi topilishi: *Po'lat pichoq* – qinsiz qolmas.
- yomon munosabat: *Yomon so'z* – pichoqdan o'tkir.
- makonsizlik: *Oshpichoqning qini yo'q, bitbildiqning ini yo'q.*
- janjal qilish: *Qirpichoq bo'lmoq;*
- kesish: *Pichoq tortmoq (yoki qo'ymoq) Pichoq bilan kesmoq, so'ymoq;*
- bardoshi yetmaslik: *Pichoq (borib) suyakka etmoq (yoki taqalmoq);*
- miqdor: *Pichoq uchiday / ozgina, zig'irday;*
- arziymaslik: *Pichoqqa ilinmaydi / pichoqqa dasta bo'lmaydi;*
- o'tkir so'zli: *Pichog'i keskir;*
- zo'r daromadli: *Pichog'i moy ustida;*
- azob: *Pichoqsiz so'ymoq* – Chidab bo'lmas darajada ruhan azoblamoq.

Yuqorida keltirilgan ushbu misollardan ko‘rinib turibdiki, mazkur oshxona asbobi o‘zbek tilida paremiyalar hosil qilishning asosiy leksemalaridan biri hisoblanadi. Fransuz tilida esa aksincha asosan, frazeologik iboralar yasashda *couteau – pichoq* referentidan keng foydalanilgan. Shuningdek, fransuz tilida *couteau – pichoq* buyumiga asoslanib yasalgan FBlar, jumladan, maqol va matallar o‘zbek frazeologiyasi bilan qiyoslanganda ancha sanoqli ekanligi bilan ajralib turadi. Xususan, fransuz tilining aksariyat frazeologik lug‘atlarida (1;2;8;) jami 20ga yaqin FBlar keltirilgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi frazeologik manbalarda esa (4;7;) 30dan ziyod FBlarni uchratish mumkin. Nazarimizda frazeologik ibora, maqol va matallarning paydo bo‘lishida kundalik turmushda doimo asqotadigan asbob hisoblangan pichoqning turli xalqlar madaniyati, urf-odati va turmush tarzi bilan bog‘liq faktlar ham sababchidek ko‘rinadi. Xususan, bilamizki, qadimda o‘zbek xalqining har bir mard yigiti o‘z yonlarida doimo g‘ilofli pichoq olib yurishgan. Bu odat hozirgi kunga kelib, yo‘qolib ketgan, ya‘ni hozirda pichoq olib yurish – sovuq qurol olib yurish bilan barobar sanaladi. Oldingi zamonlarda bu odat bir tomondan, erkaklarning har qanday vaziyatda undan foydalana oladigan darajadagi mardligi va jasoratini anglatga, yana boshqa tomondan, turli holatlarda, masalan, taomlanishda asqotadigan keskir asbob sifatida foydalanganidan dalolat beradi. Bu esa tilda o‘zaro muloqot jarayonida mazkur tig‘li asbobga asoslangan ko‘plab FBlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Fransuz va o‘zbek frazeologiyasi bo‘yicha keltirilgan mazkur misollarda *pichoq* referentining funksional vazifasidan kelib chiqqan *kesish* tushunchasi diqqatni tortadi. Bunday tushuncha FBlardagi barcha ma‘nolarda ham birdek aks etmaydi. Ya‘ni, birida *kesish* ma‘nosi mavjud bo‘lsa, boshqasida esa bunday mazmun umuman ifodalanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi majoziy mazmunli chidab bo‘lmas darajada ruhan azoblash ma‘nosidagi *pichoqsiz so‘ymoq*; iborasida yoki fransuz tilidagi o‘ta ahmoqlik ma‘nosidagi *être bête à couper au couteau* iborasida *pichoq-couteau* referenti o‘zining funksional xususiyatidagi *kesish / so‘yish* harakati bilan birga qo‘llangan holda frazeologik ma‘no kasb etgan.

Ushbu holatning teskari ko‘rinishi, ya‘ni FBlar komponentlari tarkibida *kesish / so‘yish* harakatining mavjud emasligi, xususan, *pichoq-couteau* referentining o‘ziga xos ikkinchi darajali boshqa xususiyatlari bilan birga ifodalanishi ham FBlarning frazeologik ma‘nolarini boyitishga xizmat qiladi. Misol tariqasida o‘zbek tilidagi *arzimastlik* ma‘nosini ifodalovchi *pichoqqa ilinmaydi / pichoqqa dasta bo‘lmaydi*; iborasi yoki fransuz tilidagi qadr-qimmatni ifodalovchi *Tel couteau, tel fourreau – pichog‘iga yarasha g‘ilofi*; kabi FBlarda ushbu oshxona asbobining boshqa xususiyatlariga tayanilgan holda frazeologik ma‘no hosil qilingan.

Agar biz mazkur ro‘zg‘or buyumining funksional vazifasi yoki xususiyatlarini FBlar bo‘yicha tahlil qilmoqchi bo‘lsak, dastavval uning, ya‘ni *couteau – pichoq* referentining umumiy kvalifikativ xususiyatlarini aniqlashtirib olishimiz lozim bo‘ladi va bu uning quyidagicha o‘ziga xosligini namoyon qiladi:



Ushbu o'tkir tig'li referentning bizga ma'lum bo'lgan 1ta asosiy vazifasi va 11ta kvalifikativ xususiyatlari frazeologiyada bir xil darajada aks etmaydi. Ushbu holatni quyida ikki til misolida ko'rib o'tamiz.

Fransuz va o'zbek tillarida pichoqning asosiy vazifasidan kelib chiqqan kesish/so'yish ma'nosi FBlar ifodalayotgan ma'nolarda deyarli aks etmaydi. Biroq uning bu ma'nosini FBlardagi alohida komponentlarda kuzatish mumkin, ya'ni fransuzcha: *Ce couteau là coupe comme le genou de grand-mère; Coupé au couteau;* o'zbekcha: *Pichoqsiz so'ymoq -chidab bo'lmas darajada ruhan azoblamoq; Pichog'i keskir; O'tmas pichoq qo'l kesar; Pichoq qancha o'tkir bo'lsa ham o'z sopini kesmaydi; Pichoqni oldin o'zingga o'r, og'rimasa birovga; Pichoq tortmoq (yoki qo'ymoq); Pichoq (borib) suyakka yetmoq (yoki taqalmoq)* kabi FBlarda o'tkir tig'li pichog'ning kesish xususiyati inobatga olingan.

Pichoqning ikkinchi darajali kvalifikativ belgilari ham ikki til misolida o'rganilganda, ulardan faqat o'tkirlik (*Aiguiser ses couteaux – jangga hozirlik ko'rmoq; Yomon so'z – pichoqdan o'tkir;*) va g'ilofli (*Tel couteau, tel fourreau -pichog'iga yarasha g'ilofi; Ikki pichoq bir qinga sig'mas;*) xususiyatlari ikki tilda ham birdek inobatga olingan, biroq ushbu keskir buyumning uzun shaklli (*Visage en lame de couteau – ovalsimon bet;*) va kichik (*Travailler au petit couteau – imkoni boricha harakat qilmoq;*) belgilari faqat fransuz tilida e'tiborga olinsa, uning o'tmaslik (*O'tmas pichoqqa – oltin sop;*), g'ilofsizlik (*Oshpichoqning qini yo'q, bitbidiqning ini yo'q;*), uchlilik (*Pichoq uchiday / ozgina, zig'irday;*), dastalik (*Pichoqqa dasta bo'lmaydi;*), po'latdan yasalganligi (*Po'lat pichoq – qinsiz qolmas*) esa faqat o'zbek tilida e'tiborga olingan. Qolgan belgilar ikkala tilda ham deyarli aks etmaydi. Ushbu tahlil natijasini ikkala til misolida quyidagi jadval orqali ifodalashga harakat qilamiz:

Pichoqning kvalifikativ belgilari:	<i>o'tkirlik</i>	<i>o'tmaslik</i>	<i>g'ilofli</i>	<i>g'ilofsiz</i>	<i>uchlilik</i>	<i>dastali</i>	<i>uzun shaklli</i>	<i>yaltiroq</i>	<i>katta</i>	<i>kichik</i>	<i>po'latdan</i>
Fransuz tilida :	+	-	+	-	-	-	+	-	-	+	-
O'zbek tilida:	+	+	+	+	+	+	-	-	-	-	+

Shu tariqa *pichoq* referenti fransuz frazeologiyasida *o'tkir, g'ilofli, uzun yoki kichik shakldagi oshxona asbobi* sifatida talqin qilinsa, o'zbek frazeologiyasida esa bir muncha kengqamrovli tarzda *o'tkir yoki o'tmas, g'ilofli yoki g'ilofsiz, uchli, dastali, katta yoki kichik shakldagi po'latdan yasalgan oshxona asbobi* sifatida talqin qilinadi, ya'ni frazeologiyada pichoqning mazkur belgilariga ishora qilinishi FBlar komponentlari o'rtasidagi idiomatiklik xususiyatining yo'qlishiga sabab bo'ladi. Masalan, fransuz tilidagi *Aiguiser ses couteaux*; iborasini to'g'ri ma'noda *pichoqlarini charxlamoq*; ko'chma ma'noda esa *jangga hozirlik ko'rmog*; tarzida, o'zbek tilidagi *Pichoqqa dasta bo'lmaydi*; iborasini ham to'g'ri ma'noda *biror narsaning pichoqqa dasta bo'lmasligini*, ko'chma ma'noda esa *hech narsaga arzimastlik*; tarzida qabul qilish mumkin.

Bundan tashqari, frazeologiyada pichoqning yana bir qancha o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular ham alohida tahlilni talab qiladi va shu sababli ularni keyingi izlanishlarimizda tahlil qilishga harakat qilamiz. Chunki, ushbu maqolada tor doirada olib borilgan kichik kuzatuvlar natijalari bilan chegaralanishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

Ma'lumki, fransuz va o'zbek tillarining grammatik qurilishi bir-biridan keskin farq qiladi. Jahon xalqlari tillarida aynan bir xil yoki ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan maqol va matallarni ko'plab uchratish mumkin. Tafakkurning bunday o'ziga xos maxsuli fransuz va o'zbek tillari uchun ham mushtarakdir (16, 47). Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa tariqasida pichoq referentli FBlarning ma'no ko'lami va qo'llanilish xususiyatlarini kommunikativ-pragmatik nuqtai nazardan o'rganish ham ularning struktur-semantik va funksional aspektlarini nafaqat tilda, balki, nutqiy jarayonlardagi o'ziga xosligini namoyon etishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ashurov S.S., Suvonova N.N. Linguistic, Psychological and Theological Interpretation of "White" Colour (in the example of the French and Uzbek languages)// Journal of Positive School Psychology, -2022. P.-9550-9560-9550-9560
2. Rey A., Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Dictionnaires Le Robert, 2003. – 1086 p.
3. Suvonova N.N. Ҳозирги замон француз тилидаги икки хил графикали сўзлар хусусида // Молодой ученый, -2020. С.-592-597
4. Suvonova N.N. Adaptation of the principles of nomination of lexical and phraseological antonyms in language (on the example of French) // Derivative laws of language development: Proceedings of the Republican ...2009.
5. Suvonova N.N. Communicative and pragmatic features of imperative paremias (on the French language material) / Foreign Linguistics and Linguodidactics. –P. 20-28. <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics/article/download/2514/2761>
6. Гак В.Г. и др. Новый большой французско-русский фразеологический словарь, Москва: Русский язык-Медиа, 2005. -1624 с.
7. Гак В.Г.и др. Французско-русский фразеологический словарь. /Под ред. Я.И.Рецкера. – М.: ГИИНС, 1963. –1112 с.;
8. ММ Юлдашев, НН Сувонова, ДМ Юлдашева МОДАЛЬНЫЕ ПРЕДИКАТЫ ВЫРАЖАЮЩИЕ ЖЕЛАНИЯ// Актуальные научные исследования в современном мире, -2017. 199-204

9. Назарян А. Г. Словарь устойчивых сравнений французского языка = Dictionnaire des locutions comparatives de la langue française : с примерами, переводом и эквивалентами в рус. яз. – М. : Изд-во Рос.ун-та дружбы народов, 2002. –334с.

10. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978. -407 б.

11. Сувонова Н.Н. Leksik va frazeologik antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlari (fransuz tili materialida) //Международный журнал искусство слова 4 (5).-2021.

12. Сувонова Н. Лингво-психологическая интерпретация «БЕЛОГО ЦВЕТА» во фразеологии (на материале французского и узбекского языков) //Иностранная филология: язык, литература, образование, 2021.С.- 57-65

13. Сувонова Н. Comparative analysis of the “white colour” in linguistics, psychology and the “holy qur'an”(in the example of French and Uzbek) //Международный журнал языка, образования, перевода 4 (2).-2021.

14. Сувонова Н. Некоторые соображения о феномене редупликации во французской фразеологии //Иностранная филология: язык, литература, образование, -2020. С.-23-28.

15. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари. / Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 3(32),192-205 / <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2020/08/ozbek-halk-makollarini-francuz-tiliga-tarzhima-kilishning-millij-hususiyatlari.pdf>

16. Сувонова Н.Н. Некоторые проблемы перевода узбекских пословиц на французского языка// Ученый XXI века, 2016. С.-46

17. Сувонова Н.Н., Алиева Г.Т. National features of transliting uzbek folk proverbs into french//Иностранные языки в Узбекистане, -2020. Р.- 183-196

18. Сувонова Н.Н., Долиева Л.Б. Description of human spirituality in the phraseological units with French onomatopoeic verbs //Иностранные языки в Узбекистане, -2020. Р.-55-69.

19. Сувонова Н.Н., Долиева Л.Б. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. — 2020. — № 2 (31). — Б. 65–79. // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan <https://journal.fledu.uz/en/description-of-human-spirituality-in-the-phraseological-units-with-french-onomatopoeic-verbs/>

20. Шомақсудов Ш., Шарахмедов Ш. Маънолар маҳзани. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 477 б.